

Хо‘jalik shartnomasi yuzasidan yuridik ekspertiza

XULOSA

«Qodir Ota» oilaviy korxonasi va Karmana tuman tibbiyot birlashmasi o‘rtasida 2021-yil 21-dekabrda 29-sonli outsorsing shartnomasiga 1-sonli qo‘shimcha kelishuv shartnomasi loyihasi taqdim qilingan.

1. Shartnoma predmetiga ko‘ra, Karmana tuman tibbiyot birlashmasi va «Qodir Ota» oilaviy korxonasi o‘rtasida bo‘lib, shartnoma shartiga asosan ishlar, xizmatlar ko‘rsatish (**oziq-ovqat tayyorlab berish**) belgilangan.

2. Ushbu shartnoma O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi amaldagi qonuni, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 10-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tuzilmasidagi tashkilotlarda outsorsing xizmatlari ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 16-son Qarori bilan tartibga solinadi.

3. «Qodir Ota» oilaviy korxonasi va Karmana tuman tibbiyot birlashmasi o‘rtasidagi 2021-yil 21-dekabrda 29-sonli outsorsing shartnomasiga 1-sonli qo‘shimcha kelishuv shartnomasi shartlari O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi qonuni talablari doirasida belgilangan.

4. «Qodir Ota» oilaviy korxonasi va Karmana tuman tibbiyot birlashmasi o‘rtasidagi 2021-yil 21-dekabrda 29-sonli outsorsing shartnomasiga 1-sonli qo‘shimcha kelishuv shartnomasi taraflarning javobgarligi me‘yori va nizolarni hal etish tartibi O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi qonuni talablari doirasida belgilangan.

XULOSA

1. «Qodir Ota» oilaviy korxonasi va Karmana tuman tibbiyot birlashmasi o‘rtasida 2021-yil 21-dekabrda 29-sonli outsorsing shartnomasiga 1-sonli qo‘shimcha kelishuv shartnomasi O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va O‘zbekiston Respublikasining “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to‘g‘risida”gi qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi amaldagi qonuni talablari doirasida tuzilgan bo‘lib, taraflar ushbu shartnomaga muvofiq fuqarolik huquqiy munosabatga kirishishlari va faoliyat olib borishlari mumkin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-sentyabrdagi PQ-3953-sonli qarori ilovasi “Davlat buyurtmachilari tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnomalar bo‘yicha xarid qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar)” ro‘yxatidagi: “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan davlat xaridlari sohasidagi vakolatli organ bilan kelishilgan holda tasdiqlanadigan ro‘yxat bo‘yicha tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni keyinchalik ular to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni **shartnoma tuzilgan sanadan boshlab 3 kundan kechiktirmasdan** davlat xaridlarining maxsus axborot portaliga joylashtirilsin.

